


**2019-yil 1-oktyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan
korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatimizda 4745 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1583 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4054 ta (14,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 32551 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-oktyabr holatiga 32551 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,2 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,3 % savdo, 20,8 % sanoat, 9,2 % qurilish, 6,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 24,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlik		01.10.2019 yil	
	01.10.2018 yil	01.10.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %

Jami	28497	32551	114,2	100
-------------	--------------	--------------	--------------	------------


shundan:

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1986	2138	107,7	6,6
Sanoat	5735	6769	118,0	20,8
Qurilish	2478	3001	121,1	9,2
Savdo	7296	8552	117,2	26,3
Tashish va saqlash	1075	1256	116,8	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1351	1582	117,1	4,9
Axborot va aloqa	563	593	105,3	1,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	643	746	116,0	2,3
Boshqa turlari	7370	7914	107,4	24,2

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10686 ta), Asaka (2913 ta), Andijon (2319 ta), Shahrixon (2318 ta), Oltinko'l (1659 ta) va Qo'rg'ontepa (1658 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bo'z (822 ta), Ulug'nor (615 ta) tumanlari hamda Xonobod (566 ta) shahrida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 31221 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4183 ta (15,5 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10320 ta), Asaka (2885 ta), Andijon (2148 ta), Shahrixon (2044 ta), Oltinko'l (1618 ta) va Izboskan (1523 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bo'z (814 ta), Ulug'nor (608 ta) tumanlari hamda Xonobod (562 ta) shahrida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 4745 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1583 taga ko'pdir.

**Yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning
yillar kesimida soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Andijon shahri (1348 ta), Asaka (385 ta), Shahrixon (363 ta), Andijon (339 ta), Marhamat (266 ta) va Izboskan (258 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Jalaquduq va Baliqchi (185 ta), Bo'z (165 ta), Buloqboshi (160 ta), Ulug'nor (85 ta) tumanlari hamda Xonobod (138 ta) shahrida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1772 ta), sanoat (1249 ta), qurilish (493 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (257 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (181 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (97 ta) va axborot va aloqa (76 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxona va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-oktyabr holatiga 26417 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6108 ta, oilaviy korxonalar – 822 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 18913 ta va boshqalar 574 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxona




Oilaviy korxona



Unitar korxona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 286 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 85 taga yoki 42,3 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va boshqa davlatlar hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-oktyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 286 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Andijon shahri (110 ta), Andijon (27 ta), Shahrixon (19 ta), Asaka (17 ta) va Oltinko'l (16 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Qo'rg'ontepa va Izboskan (8 ta), Xo'jaobod, Bo'z va Jalolquduq (7 ta), Paxtaobod (6 ta) hamda Ulug'nor (5 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 152 tasi qo'shma korxonalar, 134 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Andijon viloyati	286	100,0
<i>Tuman va shaharlar:</i>		
Oltinko'l	16	5,6
Andijon	27	9,4
Baliqchi	12	4,2
Bo'z	7	2,5
Buloqbo'shi	12	4,2
Jalolquduq	7	2,5
Izboskan	8	2,8
Ulug'nor	5	1,7
Qo'rg'ontepa	8	2,8
Asaka	17	5,9
Marhamat	12	4,2
Shahrixon	19	6,6
Paxtaobod	6	2,1
Xo'jaobod	7	2,5
Andijon sh.	110	38,5
Xonobod sh.	13	4,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 71 tani tashkil qilgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar (28 ta yoki jamidagi ulushi 39,4 %), Andijon (8 ta yoki 11,3 %), Honobod sh (5 ta yoki 7,0 %), Asaka, Baliqchi va Oltinko'l tumanlari (4 ta yoki 5,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Jalolquduq, Ulug'nor, Qo'rg'ontepa va Paxtaobod tumanlari (1 ta yoki 1,4 %), Xo'jaobod (2 ta yoki 2,8 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yilning yanvar-avgust oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 13 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 13 ta, Turkiya Respublikasi - 12 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 12 ta, Koreya Respublikasi - 6 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 4 ta, Hindiston Respublikasi - 3 ta va Qozog'iston Respublikasi - 3 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Белоруссия, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (33 ta), savdo (11 ta), qurilish (10 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (6 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (2 ta), axborot va aloqada (4 ta) tashkil etgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**




Kichik korxona va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 26297 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-oktyabr holatiga qaraganda 18,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 9212 tasi (35,0 %) Andijon shahri, 2486 tasi (9,5 %) Asaka, 1857 tasi (7,1 %) Andijon, 1682 tasi (6,4 %) Shahrixon hamda 1350 tasi (5,1 %) Oltunko'l tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimida jamidagi ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 26297 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 8077 tasi (30,7%) - savdo, 6427 tasi (24,4%) - sanoat, 2882 tasi (11,0%) - qurilish, 1982 tasi (7,5%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1504 tasi (5,7%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 1204 tasi (4,6%) - tashish va saqlash, 642 tasi (2,4%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 559 tasi (2,1%) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 3020 tasi (11,6%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 4546 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1949 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (1282 ta), Asaka (371 ta), Shahrixon (352 ta), Andijon (332 ta) va Marhamat tumanlari (259 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Bo'z (157 ta), Buloqboshi (149 ta), Xonobod shahrida (138 ta) hamda Ulug'nor (81 ta) tumanlari tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1772 ta), sanoatda (1248 ta), qurilishda (493 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (257 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (95 ta) va axborot va aloqada (76 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-oktyabr holatiga 850 tani tashkil etib, ulardan 822 tasi yoki 96,7 % faoliyat ko'rsatayotgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 47,2 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,1 % yoki 346 tasi sanoat, 16,5 % yoki 136 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,6 % yoki 112 tasi savdo, 13,1 % yoki 108 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 1,5 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 9 tasi qurilish, 0,9 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 6 tasi axborot va aloqa hamda 10,5 % yoki 86 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, eng kam esa qurilish, tashish va saqlash hamda axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Andijon viloyati	276	100,0
<i>Tuman va shaharlar:</i>		
Oltinko'l	8	2,9
Andijon	36	13,0
Baliqchi	7	2,5
Bo'z	54	19,6
Buloqboshi	29	10,5
Jalolquduq	1	0,4
Izboskan	13	4,7
Ulug'nor	13	4,7
Qo'rg'ontepa	14	5,1
Asaka	22	8,0
Marhamat	7	2,5
Shahrixon	17	6,2
Paxtaobod	0	0
Xo'jaobod	0	0
Andijon sh.	40	14,5
Xonobod sh.	15	5,4

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 276 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 188 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Bo'z (54 ta), Andijon shahri (40 ta), Andijon (36 ta), Buloqboshi (29 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Oltinko'l (8 ta), Baliqchi va Marhamat (7 ta) hamda Jalaquduq (1 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 39,1 % yoki 108 tasi sanoat, 23,6 % yoki 65 tasi savdo, 15,2 % yoki 42 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 5,4 % yoki 15 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 3 tasi qurilish, 1,1 % yoki 3 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,4 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hamda 13,4 % yoki 37 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

KTYADR – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga asosan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo‘limi

Tel.:74-228-29-74